

## 2020-yil yanvar-may oylarida Samarqand viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020-yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaliviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilmagan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 880,8 mld. so'mga yetdi. Taqqlasla ma'lumotlarga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,9 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


Dastlabki ma'lumotlar

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4 880,8</b>	<b>94,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	276,3	110,7
Moliyaviy xizmatlar	782,9	131,5
Transport xizmatlari	1 131,6	88,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 066,9	91,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	178,2	81,8
Savdo xizmatlari	1 448,6	94,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	103,3	73,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	240,6	107,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	65,9	76,4
Ijara xizmatlari	139,0	81,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	117,4	81,5
Shaxsiy xizmatlar	180,5	79,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	62,2	72,0
Boshqa xizmatlar	154,3	75,3


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 29,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (23,2 %), moliyaviy xizmatlar (16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,7 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining tarkibi, % da  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'limgan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,3 %.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan % da  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**




Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (31,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda (10,7 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasida bo'lgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada (28,0 % ga) pasayishi qayd etildi . Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (26,3 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (23,6 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,2 % ga), ijara xizmatlari (18,1 % ga), transport xizmatlari (12,0 % ga), shuningdek, savdo xizmatlarida (5,9 % ga) pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiyligi hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 23,2 %.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**



Transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 94,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarida boshqa transport faoliyati esa – 5,7 % ni ko'rsatdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020-yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarining ulushi 29,7 % ni tashkil etib, bu 1 448,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga, aniqrog'i 75,5 % ga to'g'ri keladi.


---

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da  
(2020-yil yanvar-may oylarida)**


---



Avtomobillar va mototsikllar  
ulgurji va chakana savdosи,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 15,4 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosи bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyl hajmidagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-may oylarida)



2020-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 782,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 190,3 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 31,5 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020-yil yanvar-may oylarida)


Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,6 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 3,8 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmivi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,6 % ni tashkil etadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-may oylarida)



2020-yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi 276,3 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish surʼati 110,7 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-may oylarida)



2020-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 240,6 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil etdi.



2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan,  
hajmning o'sishi - 54,0 mlrd. so'mga

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-may oylarida)**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 178,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiylajmi hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar hajmi



178,2 mlrd. so'm

32,7 mlrd. so'm



Yashash bo'yicha  
xizmatlar hajmi

145,5 mlrd. so'm



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan  
ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yil yanvar-may oylarida)

81,6 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar



18,4 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,6 % bilan ustunlik qiladi.


2020-yil yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-may oylarida)

2020-yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 65,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida ularning ulushi 1,3 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 76,4 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 256,3 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 1 256,3 ming so'm

2019 yilning yanvar-may oylariga nisbatan



Dastlabki ma'lumotlar

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

### Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

66-230-45-34